

XOTIN-QIZLARGANISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKNI OLDINIOLISHDA XALQARO TAJRIBA.

Turg'unbaev Bahromjon Baxtiyorovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Yuridik fanlar kafedrası o'qituvchisi podpolkovnik

Tel: +998-99-833-35-57

Annotatsiya: Ushbu maqolada zo'rovonlikka uchragan ayollarni qo'llab quvatlash, ularni himoya qilish, ijtimoiy yordam berish va xalqaro tajribalarga tavsif berilgan.

Kalit so'zlar: Gender, Tazyiq, zo'rovonlik, ayollar, qonunchilik, psixologik yordam.

Аннотация: В статье описывается международный опыт поддержки, защиты и оказания социальной помощи женщинам, подвергшимся насилию.

Ключевые слова: Гендер, угнетение, насилие, женщины, законодательство, психологическая помощь

Abstract: This article describes international experiences in supporting, protecting, and providing social assistance to women who have experienced violence.

Keywords: Gender, Violence, Violence, Women, Legislation, Psychological Assistance.

Ma'lumki, jamiyatimizda har qanday illatga qarshi kurashishni oiladan boshlasak, uning ijobiy natijasini ko'ramiz. Shu ma'noda Asosiy Qomusimiz – Konstitutsiyaning 63-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega deb belgilangan³.

Qator qonun hujjatlariga ko'ra, shaxsga nisbatan jismoniy zo'rovonlik qilish jinoiy jazolanadigan qilmish bo'lishiga qaramay, amaliyotda ayollarga nisbatan, ayniqsa oilaviy maishiy hayotda zo'rovonlik hollariga huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan etarlicha e'tibor berilmaydi. Shu bois ham ruhiy, ham iqtisodiy zo'rovonlik hamda tazyiq uchun javobgarlikni

³ <https://constitution.uz/uz/clause/index>

qonunchilik yo‘li bilan tartibga solish talab etilmoqda. Bu masalalar to‘liq qamrab olinadigan yagona qonunning mavjud emasligi esa davlat organlariga tizimga solingan kompleks statistika olib borish imkonini bermagan edi.

Xotin-qizlarga nisbatan qayd etilgan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining 87 foizi ularning oilalarida, 9 foizi ko‘chalarda, 2,4 foizi jamoat joylarida sodir etilgan. Bu haqida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi axborot xizmati xabar bergan.

Qayd etilishicha, 2021 yilda zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga murojaat qilgan 7226 nafar fuqarolardan 3320 nafariga psixologik, 2784 nafariga huquqiy, 240 nafariga tibbiy va 879 nafariga boshqa yordamlar ko‘rsatilgan. Zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan 32154 nafar xotin-qizlarga himoya orderi berilgan, ularning 320 nafari voyaga etmagan, 8937 nafari 18 yoshdan 30 yosh orasida, 22.000 dan ortig‘ini 30 yoshdan oshgan ayollar tashkil etmoqda. 1833 ta tazyiq o‘tkazgan, zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar himoya orderi talablarini bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksiga ko‘ra ma’muriy javobgarlikka tortilgan⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazida kuni Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Ayollar huquqlarini himoya qilishda xalqaro va milliy mexanizmlar” mavzusidagi o‘quv kursi ochilishida davlatimiz rahbarining mazkur nutqi mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilganligini ta’kiladi⁵.

Bugungi kunga kelib ushbu mavzu bo‘yicha qonunchilikdagi muammolar va ularning ijrosidagi muammolar, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha odil sudlovga erishishdagi muammolar, kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo‘lgan odamlar ongidagi muammolar mavjud.⁶

⁴ <https://muzrabot.uz/oz/blog/isobotlar/83>

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз икки йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида <https://president.uz/uz/lists/view/6637>

⁶ Камола Алиева, Дильбар Рашидова, Марина Чохели, Минавар Рахимова ва бошқалар “Ригендер зўравонлиги бўйича тадқиқот натижалари: миллий тажриба ва хорижий амалиёт”, Рисола-Т., 2022., Б-15.

Insoniyatning tarixiy tajribasi va taraqqiyot yo‘li oila har birimiz uchun eng aziz va mo‘tabar go‘sha – chinakam hayot va tarbiya o‘chog‘i ekanligi, hech kim undan ayro yashay olmasligi, usiz kamolga etmasligini allaqachon isbot qilgan. Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni beqiyos va hech narsaga almashilmaydi. Uning ta‘rifi ham murakkab, mazmun-mohiyati esa nihoyatda teran, surati rang-barang va bir-biriga aslo o‘xshamaydi. Hayot gashti – turmush totuvligida. Ammo, turmush totuvligi o‘z-o‘zidan yuzaga kelmasligini unutmaslik lozim. Oddiygina bir e‘tiborsizlik ham ba‘zi hollarda turmush maromini izdan chiqarishi mumkin.

Oila-har bir jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo‘ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg‘unchilik bo‘lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o‘sha jamiyat buziladi, tinchi yo‘qoladi, u oqibatda chuqur tanazzulga yuz tutadi⁷. Shu boisdan eng mukammal din bo‘lmish Islom oilaning pokligi, kamoloti, osoyishtaligiga hamisha katta e‘tibor bilan qarab keladi. Oilaning bosh hujjati sanalmish nikohni inson munosabatlari ichida eng muqaddas aloqa, deb hisoblaydi⁸.

Bilamizki bugungi dunyoda yana bir ommalashib borayotgan dolzarb muammolardan biri bu ayollarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari hisoblanadi.

Insoniyat tarkibi azaldan ikki jins vakillaridan iiborat ekan, ularning o‘zaro munosabatlarida bir-biriga nisbatan hurmat bilan yondashish zaruriyati, bir - birini to‘la qonli teng huquqli inson sifatida qabul qila olish zamonaviy dunyoning eng ustuvor talablaridan biriga aylangan; Afsuski aksariyat hollarda ayollar erkaklar tomonidan sodir etiladigan turli shakldagi zo‘ravonlik holatlari qurbonlariga aylanib qolmoqda.

Adabiyotlarni o‘rganish turli xil aralashuv usullarini, shu jumladan kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, g‘azabni boshqarish dasturlari va reabilitatsiya tashabbuslarini o‘rganadi. Shuningdek, u residivizm xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlash uchun xavflarni baholash vositalarini o‘rganadi. Tahlil mavjud aralashuvlarning kuchli tomonlari va cheklovlarini tanqidiy baholaydi va yaxlit va individual yondashuv zarurligini ta’kidlaydi.

⁷ <https://uzmarkaz.uz/uploads/2022/12/aellarganisbatantazjikkvazuravonlikdanhimoakilisbujicakullanma.pdf>

⁸ <https://oliymahad.uz/>

BMT tomonidan berilgan ma'lumotlariga ko'ra dunyo miqyosida taxminan 736-million ayol (deyarli har uch ayoldan biri) umri davomida kamida bir marta u yoki bu shaklda zo'ravonlik qurboni bo'lgan: Ayollarning atiga 40%foizidan kamrog'i yordam so'rab murojat qiladi.

Bugungi kunda butun dunyo bo'yicha tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ham 2019-yil 2-sentyabr kuni "Xotin qizlar tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

Barcha davlatlarda zo'ravonlikka uchragan xotin qizlarga yordam beruvchi organlar mavjud bo'lib ular qonun asosida ish yuritadi. Respublikamizda gender tengligini ta'minlashga doir turli masalalar jumladan xotin- qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini o'rganishga so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan "Mahalla va oila" insituti tomonidan mazkur yo'nalishida qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshiriladi⁹.

Tazyiq va zo'ravonlik holatiga uchragan ayollar bilan ishlashda har bir mamlakatning o'zyondashuvi mavjud.

Masalan Singapurda oilaviy hamda xotin qizlarga taalluqli masalalar, xususan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini kamaytirish zo'ravonlik holatlarini kamaytiruvchi ijtimoiy va oila rivojlanishi vazirligi amalga oshiradi.

Yaponiyada gender tenglig buyorosi.

Kanada esa ayollar gender tengligi va yoshlar masalalari vazirligi mazkur yo'nalishdagi faoliyatini umumlashtiradi.

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holati Argentina uchun ham asosiy ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi.

2022-yilning yanvar iyun oylarida 144-linya xizmatiga uch vosita (telefon, WhatsApp va electron pochta) orqali jami 63-ming 202 murojat kelib tushgan bo'lib ularning 91% foizi oilaviy munosabatlar doirasida sodir etilgan.

Shvetsariyada tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin qizlarni himoya qilish boyicha quyidagi davlat nodavlat tashkilotlari hamkrolikda faoliyat olib boradi.

- Fuqorlik sudi
- Qurbonlar bilan ishlash agentligi
- Politsiya

⁹ Ўзбекистон Республикасининг "Хотин қизлар тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида"ги қонун // <http://www.lex.uz>.

- Ijtimoiy ta'minot organlari
- Migrant ayollar uchun huquqiy maslahat organlari
- Sog'liq saqlash muassasalari
- Maktablar
- Maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqalar

Shuncha harakatlar olib borilishiga qaramay jinoyatlar hali hamon qayd etilmoqda: Bular shunchaki sonlar emas bir insoning hayoti zo'ravonlik ko'p narsalarga xavf soladi. Har bir zo'ravonlik kop narsalarga havf soladi. Har bir zo'ravonlik ayol va uning farzandlari uchun og'ir ijtimoiy psixologik zarba. Ruhiy tushkunlik, depressiya o'z joniga qasd qilish kabi ko'plab salbiy oqibatlar ham ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Barcha davlatlarda zo'ravonlik uchragan xotin qizlarga yordam beruvchi organlar mavjud bo'lib ular qonun asosida ish yuritadi, respublikamizda gender tengligi ta'minlashga doir turli masalalar, jumladan xotin- qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini o'rganishiga so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Jumladan "Mahalla va oila" insituti tomonidan mazkur yo'nalishda qator- ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshiriladi tazyiq va zo'ravonlik holatiga uchragan ayollar bilan ishlashda har bir mamlakatning o'z yondashuvi mavjud.

Masalan; Singapurda oilaviy hamda xotin- qizlarga taaluqli masalalar, xususan, tazyiq va zo'ravonlik holatlarini kamaytiruvchi, zo'ravonlik holatlarini kamaytiruvchi ijtimoiy va oila rivojlanishi vazirligi amalga oshiradi. Argentinada esa ayollar, gender va xilma-xillik vazirligi amalga oshiradi. Yaponiyada Gender tenglig buyorosi, Kanada esa ayollar gender tengligi va yoshlar masalalar vazirligi mazkur yo'nalishdagi faoliyatini umumlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmoniga muvofiq to'rtinchi ustuvor yo'nalishida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishda.

69-maqсад: Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashda.

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash.

Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish.

Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish.

Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish.

Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.

Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash.

«Ayollar daftari» bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi dolzarb vazifalar yuklangan.

Hulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ayollarning jamiyatda mavqeyini oshirish uchun oila jamiyatning eng qo'yi bo'g'ini bo'lganligi sababli uning ijtimoiy muxitini shakllantirish. Oilaviy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq. Shu sababli oila huquqi u yoki bu darajada deyarli barcha huquq sohalari bilan o'zaro bog'liq. Biroq bu bog'liqlikning daraja va shakllari turlicha namoyon bo'ladi.

Demak, oila mustahkam bo'lishi hamda jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shishi uchun, avvalo, ota – onalar farzand tarbiyasiga va yangi oila qurayotgan yoshlarni o'z tenglarini topishga ma'suliyat bilan yondashishsa, otalarning o'zlari bu ishlarda namuna bo'lishsa bizlar orzu qilgan jamiyat barpo qilinadi.

Zero, oila jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, undagi ziddiyatlar va qaramaqarshiliklar hamda muammolar bevosita jamoatchilik ishtirokida muntazam hal etib borilmasa, bu turdagi huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar sifatli tashkillashtirilmasa, kelgusida bunday nazoratsizlik xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik oldi olinmasa millat genofondiga, milliy qadriyatlarimizga asoslangan oila institutiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalangan Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <http://www.lex.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin qizlar tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun // <http://www.lex.uz>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmoni // <http://www.lex.uz>.